

YOLQIN XOLMATOVICH TO'RAQULOV ILMIY FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10866214>

Abdumatalibova Mag'firat Mirodil qizi

Ilmiy rahbar:Toshkent Tibbiyot akademiyasi

"Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Ergasheva Muxlisa Sanjar qizi

Pediatriya. Stomatologiya, Xalq tabobati va Tibbiy pedagogika fakulteti

Pediatriya yo'nalishi I bosqich talabasi

Annotatsya

Ushbu maqolada Oliy ta'lif dargohlarida tahlil olayotgan talabalar uchun biokimyogar olim, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari doktori, professor **Yolqin Xolmatovich To'raqulov** hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan, hamda barcha talabalar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan eng ahamiyatli jihatlar haqida fikr-mulohazalar o'rinn olgan.

Kalit so'zlar

ilmiy faoliyat, pedagog, olim, akademik, endokrinolog, patofiziolog

Аннотация

В данной статье для студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, представлена информация о жизни и научной деятельности биохимика, академика Академии наук Узбекистана, заслуженного деятеля науки Узбекистана, доктора биологических наук, профессора **Йолкина Холматовича Торакулова**. Важные аспекты, на которые должны обратить внимание все студенты.

Ключевые слова

научная деятельность, педагог, учёный, академик, эндокринолог, патофизиолог.

Annotation

*This article provides information about the life and scientific activity of biochemist, academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, distinguished scientist of Uzbekistan, doctor of biological sciences, professor **Yolkin Kholmatovich Torakulov** for students studying at higher education institutions. , and comments on the most important aspects that all students should pay attention to.*

Key words

scientific activity, pedagogue, scientist, academician, endocrinologist, pathophysiolist

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigelik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Va bu vaqt oralig'ida turli insonlar turli sohalarda o'z yutuqlarga erishishgan. Bu faqat ularning emas, balki butun xalqimiz yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular xalqimiz uchun juda ko'p xizmatlar ko'rsatishgan. Bu olimlardan biri O'zbek biokimyogarlari va endokrinologlari maktabi asoschisi, mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimini yaratishga, fan taraqqiyotini yo'lga qo'yishda, xususan dunyo fanida qalqonsimon bez faoliyatini, tireoid gormonlar biokimyosi va uning ta'sir mexanizmlarini ochib beishga ulkan hissa qo'shgan, "Buyuk xizmatlari uchun", "El yurt hurmati", "Jasorat" va "Shuhrat" ordenlari sohibi, atoqli tibbiyotchi va pedagog olim akademik Yolqin Xolmatovich To'raqulovdir.

Yolqin Xolmatovich To'raqulov 1917-yil 10-noyabrdada Qozog'iston Respublikasi Merke shahrida tavallud topgan.

Y.X.To'raqulov 1936-yil Toshkent Tibbiyot institutini (hozirgi Toshkent



Tibbiyot Akademiyasi) tugatgan. Keyin shu institut biokimyo kafedrasida asisstant(1936-1938), aspirant(1938-1941) va ayni vaqtida Toshkent farmasevtika instituti direktori(1939-1941). Ikkinci Jahon urushi qatnashchisi(1941-1944), va yana shu institut direktori(1944). SSSR Tibbiyot Fanlar Akademiyasi Biologiya va tibbiyot kimyosi institutida ilmiy xodim, Toshkent Tibbiyot akademiyasi rektori, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qishloq xo'jalik institutida katta ilmiy xodim, Andijon Tibbiyot instituti prorektori va kafedra mudiri, direktor o'rinosbasari , O'zbekiston Sog'liqni Saqlash vazirligi O'lka tibbiyot ilmiy-tadqiqot instituti direktori, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumi a'zosi, vitse-prezidenti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tibbiyot fanlari bo'limi raisi va yana turli lavozimlarda o'z sohasiga yetarli hissa qo'sha olgan.

Y.X.To'raqulovning ilmiy ishlari qalqonsimon bez patologiyasining ba'zi turlarida tireoid gormonlar biokimyosiga oid. Uning tadqiqotlari zamonaviy biologiya, tibbiyot, biokimyo, biofizika, radiobiologiya va endokrinologiya

fanlarining original yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Q. Islombekov, Y.X.To‘raqulov dunyoda birinchi bo‘lib buqoq kasalligini aniqlash va davolashning yangi usulini ishlab chiqishgan. Qalqonsimon bezning normal, tireoid patologiyada hamda radioyodterapiyada olingan biokimyoviy, patofiziologik va klinik morfologik ko‘rsatkichlari natijalari ijobjiy samara berdi. Y.X.To‘raqulov Respublikamizda Biokimyo va Endokrinologiya ilmiy tadqiqot institutlarini ochilishiga bevosita asos solgan va oily o‘quv yurtlarida biokimyo kafedralarini tashkil qilishda jonbozlik ko‘rsatgan olimdir. .

Qalqonsimon bez kasalliklarida radioaktiv yod yordamida o‘tkazilgan klinik biokimyoviy ishlari uchun nufuzli Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan (1964). Biokimyodan darslik va o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlar tuzgan. Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat Mukofoti laureati (1985), "El-yurt hurmati" (1998) va "Buyuk xizmatlari uchun" (2003) ordenlari bilan mukofotlangan.

Yurtimizda 2017-yil 9-10-noyabr kunlari akademik Y.X.To‘raqulov tavalludining 100 yilligini keng miqyosda nishonlash maqsadida "Akademik Yolqin Xolmatovich To‘raqulovning hayoti va ilmiy merosi" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilgan. Bu konferensiyada Y.X.To‘raqulovning hayoti va ilmiy merosiga oid davra suhbatlar o‘tkazilgan, ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan, O‘zbekiston va dunyo fanini rivojiga qo’shgan hissasi haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritishgan.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish lozimki, Yolqin Xolmatovich To‘raqulov biokimyo va endokrinologiya sohalarida jonbozlik ko‘rsatgan olim hisoblanadi. Va xalq yo‘lida ham o‘zining munosib hissasini qo’sha olgan. Shunday ekan aynan biz, ya’ni tbbiyot talabalari Y.X.To‘raqulov ilmiy ishlarini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu maqolada esa Y.X.To‘raqulov hayoti va ilmiy ishlari bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar keltirilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biologik kimyo va Molekulyar biologiya- Parida Mirxamidova, Dilnoza Boboxonova, Abdukarim Zikiryayev
2. Endokrinologiya fani, uning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi-Xudoyberdiyeva Dildora
3. Biologik Kimyo- O.O.Obodov, A.A.Jurayeva, G.Y.Malikova
4. “<https://uz.m.wikipedia.org>” sayti
5. “<https://n.ziyouz.com>” sayti